

56-Xalqaro Kimyo olimpiadasi ishtirokchilari tantanali tarzda kutib olindi

// 06.08.2024

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/56-xalqaro-kimyo-olimpiadasi-ishtirokchilari-tantanali-tarzd>



Xabaringiz bor, Saudiya Arabistonida bo'lib o'tgan 56-Xalqaro Kimyo olimpiadasida O'zbekiston terma jamoasi 1 ta oltin, 2 ta kumush, 1 ta bronza medallarini qo'lga kiritgan edi. Bugun Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida olimpiada ishtirokchilari tantanali tarzda kutib olindi.

Marosimda "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi Timur Muxamedjanov ishtirok etib, o'quvchilarni ushbu yuksak natija bilan tabriklaydi hamda ularga Jamiyat tomonidan qimmatbaho esdalik sovg'alarini topshirdi.



Ma'lumot uchun, 87 ta mamlakatdan 340 nafardan ortiq o'quvchilar ishtirok etgan ushbu nufuzli olimpiadada Toshkent shahar Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabining 10-sinf o'quvchisi Daler Rahimov -- oltin medalni, Toshkent shahar Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabining 11-sinf o'quvchisi Ahror Bahodirov - kumush medalni, Navoiy shahar 11-sonli AFCHO'IM 11-sinf o'quvchisi Saida Abdullayeva - kumush medal hamda Toshkent shahar Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabining 10-sinf o'quvchisi Mirjahon Muhammadov bronza medalini qo'lga kiritishdi.



"O'zkimyosanoat" AJ jamoasi O'zbekiston terma jamoasi yoshlarini va ularning ota-onalarini nufuzli fan olimpiadasidagi muvaffaqiyatli ishtiroki hamda yuqori natijalari bilan tabriklaydi!

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati